


# Results of National Scientific Research



## BADIY MATNDA METAFORALARNING AHAMIYATI

**Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi**

Andijon davlat universiteti

Filologiya (o'zbek tili) fakulteti 3-bosqich talabasi

Telefon: + 998 99 406 03 12

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ma'no ko'chish usullaridan biri hisoblangan metaforalarning badiiy matnda qo'llanilishi va ularning ahamiyati, xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'chma ma'no, troplar, metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa.

O'zbek tilshunosligi fani o'tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog'liq muammolarning o'rtaqa tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko'rsatib turibdi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish yetarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, so'zlar asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosini negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosini faqat konteksda reallashadi.

Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishi barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin nom ko'chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlichadir. Ba'zi adabiyotlarda nom ko'chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko'rsatilsa, ayrim adabiyotlarda bunday hodisalarning undan ko'p turlari ko'rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko'pchiligidagi esa (ayniqsa,

keyingi vaqtarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko'chishiga olib keluvchi hodisaning to'rt turi keltiriladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.

Badiiy matnda leksik sathdagi ko'chma (trop)lar nihoyatda katta ahamiyatga ega, ular badiiy mazmunni ifodalashda eng faol vositalardir. Ayniqsa, ko'chimlar orasida metafora muhim va keng qo'llanuvchi vosita sifatida tilimizda badiiy tasavvurlarning natijalari asosida yuzaga kelgan. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no uchun qo'llanishi oddiy nominatsiya vazifasinigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Metaforani faqat ko'chim yoki badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining, xususan, obrazli tafakkurning muhim mexanizmlaridan biri sifatida tushunish bilan bog'liq holda XIX asr o'rtalaridan adabiyotshunoslik qatori tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya, semiotika kabi ko'plab ilm sohalari ham o'zining qiziqishlari doirasida tadqiq etgan. O'zbek adabiyotshunoslida ham metaforani ko'chim sifatidagina tushunish barham topib, uning badiiy asarda, badiiy tafakkurda tutgan o'rni, ijodiy uslubni belgilovchilik xususiyati o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. O'zbek tilshunoslida 70-yillardan boshlab, ko'p ma'nolilik va so'zlarning ko'chma ma'nolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Bu borada tilshunos olim M.Mirtojiyevning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, metaforani tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan, alohida ijodkor she'riyatida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarda ko'chma ma'noni hosil qiluvchi vositalar qatorida metaforaga ham o'rin berilgan va ko'chma ma'noni vujudga keltiruvchi vositalar sistemasida metaforaning boshqa vositalardan farqli jihatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan. G.Qobuljonova metafora va uning lingvistik tabiatini alohida monografik planda o'rgangan.

O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi va ko'chimning o'xshashlikka assoslangan turi sifatida baholanadi. Sh.Rahmatullayev metafora ko'chimning boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga

e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. Samolyotning qanoti metaforik birikmasida qush qanotiga nafaqat vazifa, balki shaklan ham o'xshaydi. Shuning uchun bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko'chirish desa ham bo'ladi.

A.Avelichevning fikricha, metafora so'zlovchining quyidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi: birinchidan, bir narsani nomlash, ikkinchidan, nomlanganda ham nomning "gapirofigan bo'lish zaruriyati".<sup>1</sup> Bu yerda nomlash atamasi ostida bir-biridan mohiyatan farq qiluvchi ikki xil hodisa nazarda tutiladi.

1.Nomsiz narsani nomlash.

2.Nomli narsaga qayta nom berish (ikkilamchi).

Nomsiz narsani nomlash o'z nomidan ham ko'rinish turganidek, konteksda biror narsani so'zlovchi o'ziga moslab nom berishidir.

Ikkilamchi nomlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi? Bu zaruriyat mavjud bo'lgan nom so'zlovchi nuqtayi nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta'minlay olmay qolganda yuzaga keladi.<sup>2</sup> Ikkilamchi nomlashda so'zlovchining subyektiv munosabati ham ifodalanadi, natijada metaforik ko'chma ma'noga ega bo'layotgan so'z yoki birikmalar konotativ ma'noning hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Ikkilamchi nomlash quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir: nutqni qisqa va lo'nda qiladi, aniqlashtiradi.

Agar muayyan so'zda ayni jarayon (ikkilamchi) da qatnashish imkoniyati bo'lmasa, u bu jarayonda qatnasha olmaydi. Bunday imkoniyat esa so'z sememasi (ma'nosi)ning tarkibiy qismlari – semalarining nisbiy mustaqillikka erisha olish qobiliyatidir. Ya'ni ikkilamchi nominatsiya uchun zaruriy semalar yorqinlashadi, mustaqillashadi va mutanosib semaga ega bo'lgan boshqa bir so'z bilan sintagmatik aloqaga kirishadi. Natijada ikkilamchi nominatsiya yuzaga keladi.

<sup>1</sup> А.К.Авеличев. Заметки о метафора. Вест. – Москва. Ун-та. Сер. 10.Филология. 1973-№1-с. 25-28.

<sup>2</sup> G.Qobuljonova. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol.fan.nomzodi...diss.avtoref. T.: - 2000.

O'zbek tilshunosligida komponent-semik tahlilga e'tibor rivojlanan boshlagach, metafora tabiatini o'rganishga ana shu tahlil usullarini tadbiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shu xil yo'naliş namoyondalaridan biri Z.Tohirov metaforani leksema sememasining pragmatik semasi sifatida baholaydi.<sup>3</sup> Shuningdek, metafora va o'xshatish orasidagi farqni shakldagina ko'radi.

Metaforalar shoirning o'z fikrlarini kitobxonga ta'sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she'riy asarlarning hamma ko'rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq holda she'rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bunday vositalar uslubiyatga oid ishlarda ifoda-tasvir vositalari, badiiy matnning o'ziga xosligini ta'minlovchi, bo'yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda bu turdagи vositalar o'rinci qo'llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo'yoqlarda o'quvchi yoki tinglovchi ko'z o'ngida aks etadi. Badiiy matnda qo'llanilgan metaforalar o'z ta'sirchanlik xususiyati bilan o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari metaforalar kishiga o'z fikrlarini tilda mavjud bo'lgan vositalar yordamida uzundan uzun jumlalar orqali ifodalashdan qutqaradi. Metaforalar yordamida yozuvchining fikrlari qisqa va aniq, sodda va obrazli tarzda o'z aksini topadi.

Badiiy matnlarni o'rganish o'zbek ijodkorlarining muallif nutqi va personaj nutqini individuallashtirish, portret, turli tabiat manzaralari va poetik obraz yaratishda ifoda-tasvir, lingvopoetik vositalardan, leksik-frazeologik resurslar, xalq tili birliklaridan unumli foydalanish mahorati, ularning o'zbek adabiy tili xazinasini boyitishga qo'shgan munosib hissalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

<sup>3</sup> Z.Tohirov.Metafora sememasini pragmatik semasi//O'zbek tili va adabiyoti. – 1984.

1. А.К.Авеличев. Заметки о метафоре. Вест. – Москва. Ун-та. Сер. 10.Филология. 1973-N1-с. 25-28.
2. G.Qobuljonova. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol.fan.nomzodi...diss.avtoref. T.: - 2000.
3. Z.Tohirov.Metafora sememasi pragmatik semasi//O'zbek tili va adabiyoti. – 1984.